ABDURAUF FITRAT QARAŞLARIDA DINIY-MA'RIFIY YANGILANIŞ VA JAMIYAT TARAQQIYOTI MASALALARI

BAHROMOV UMID
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ÕQITUVCHISI

IMOMOVA SHAHODAT
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24441052

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Õrta Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida muhim õrin egallagan Abdurauf Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari hamda jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalari tarixiy-ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti", "Rahbari najot", "Oila", "Muxtasar islom tarixi" kabi asarlarida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik, diniy bilimlarni yangilash, ta'lim tizimini isloh qilish, ilm-fan va axloqiy tarbiyani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Mutafakkirning islom dini mohiyatini ilm-ma'rifat bilan uyg'un holda anglash, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashish, millat kelajagini ta'lim-tarbiya orqali ta'minlash haqidagi fikrlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Fitrat qarashlarining jadidchilik harakati va Õzbekistonda zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy tafakkur shakllanishidagi tarixiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit sõzlar: Abdurauf Fitrat, jadidchilik, diniy-ma'rifiy yangilanish, islom, ma'rifatparvarlik, "Rahbari najot", "Munozara", "Oila", ta'lim islohoti, jamiyat taraqqiyoti, milliy uyg'onish.

Аннотация: В данной статье исторически и научно анализируются религиозно-просветительские взгляды Абдурауфа Фитрата, занимавшего важное место в общественной, политической и духовной жизни Центральной Азии начала XX века, а также его идеи о развитии общества. Особое внимание уделяется вопросам просвещения, обновления религиозных знаний, реформирования системы образования, развития науки и нравственного воспитания, отражённым в произведениях «Мунозара», «Изложение индийского путешественника», «Рахбари нажот», «Семья» и «Краткая история ислама». Рассматриваются взгляды мыслителя на необходимость гармоничного сочетания исламских ценностей с научными знаниями, борьбу с невежеством и отсталостью, а также обеспечение будущего нации посредством образования и воспитания. Раскрывается историческое значение идей Фитрата для джадидского движения и формирования современного духовно-просветительского мышления в Узбекистане.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, джадидизм, религиозно-просветительское обновление, ислам, просвещение, «Рахбари нажот», «Мунозара», «Семья», реформа образования, развитие общества, национальное возрождение.

Abstract: This article examines the religious and educational views of Abdurauf Fitrat, one of the prominent intellectuals of Central Asia in the early twentieth century, and his ideas concerning social development. Particular attention is paid to the issues of enlightenment, the renewal of religious knowledge, educational reform, scientific progress, and moral upbringing reflected in his works, including "Munozara",

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"Bayonoti sayyohi hindi", "Rahbari najot", "Oila", and "Muxtasar islom tarixi". The article analyzes Fitrat's understanding of the relationship between Islamic values and modern scientific knowledge, his criticism of ignorance and social backwardness, and his emphasis on education as a foundation for national progress. It also explores the historical significance of his ideas within the Jadid movement and the development of modern intellectual and educational thought in Uzbekistan.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Jadid movement, religious and educational renewal, Islam, enlightenment, "Rahbari najot", "Munozara", "Oila", educational reform, social development, national revival.

KIRIŞ: Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, avvalo, uning ma'naviy dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, ta'lim-tarbiya tizimi va ijtimoiy hayotidagi yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Õrta Osiyoda yuzaga kelgan murakkab tarixiy sharoit, siyosiy qaramlik, iqtisodiy qiyinchiliklar hamda ta'lim tizimidagi muammolar jamiyat hayotini yangilash zaruratini kuchaytirdi. Ayniqsa, Buxoro amirligi va Turkiston hududida mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat, an'anaviy ta'lim muassasalaridagi ayrim kamchiliklar va zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan yetarli darajada foydalanilmasligi ma'rifatparvar ziyolilarni jamiyatni isloh qilish haqida chuqurroq fikr yuritishga undadi. Ana shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, u xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy ongni rivojlantirish va jamiyatni taraqqiyot sari yo'naltirishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgiladi.

Õzbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat õzining serqirra ijodi, ilmiy izlanishlari, publitsistik faoliyati va ijtimoiy qarashlari bilan milliy uyg'onish tarixida alohida õrin egallaydi. U 1886-yilda Buxoroda tug'ilgan, dastlab an'anaviy maktab va madrasada tahsil olgan. Keyinchalik Istanbulda ta'lim olishi uning dunyoqarashi shakllanishida, zamonaviy islohotchilik g'oyalari bilan tanishishida muhim ahamiyat kasb etdi. Fitratning xorijda olgan bilimlari, musulmon Sharqidagi yangilanish jarayonlarini kuzatishi va Buxorodagi ijtimoiy muammolarni chuqur anglashga intilishi uning ma'rifatparvarlik qarashlari rivojlanishiga ta'sir kõrsatdi.[1]

Abdurauf Fitrat faoliyatining muhim jihatlaridan biri shundaki, u jamiyat taraqqiyotini faqat siyosiy yoki iqtisodiy õzgarishlar bilan cheklab qõymadi. Mutafakkir xalqning ma'naviy yuksalishi, diniy bilimlarning mazmunini anglash, dunyoviy fanlarni egallash, yosh avlodni tarbiyalash va oiladagi munosabatlarni takomillashtirishni ham taraqqiyotning muhim shartlari sifatida baholadi. Uning fikricha, jamiyatning rivojlanishi uchun insonlar ilmli, ongli, axloqli va õz oldiga aniq maqsad qõya oladigan bõlishi lozim edi. Shu sababli Fitrat asarlarida diniy-ma'rifiy yangilanish masalasi milliy uyg'onish va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bõladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari Õzbekiston tarixida jadidchilik harakatining g'oyaviy asoslarini, XX asr boshlarida jamiyatni yangilashga qaratilgan intilishlarni hamda milliy tafakkur taraqqiyotini anglash imkonini beradi. Uning ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya, oila, diniy bilim va zamonaviy ta'lim haqidagi qarashlari bugungi kunda ham tarixiy va ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya : Abdurauf Fitratning hayoti va ijodini õrganish Õzbekiston tarixshunosligi, adabiyotshunosligi va falsafiy tafakkurida muhim yõnalishlardan biri hisoblanadi. Mutafakkirning asarlari, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ma'rifatparvarlik g'oyalari turli davrlarda olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Begali Qosimovning jadidchilik harakati va milliy uyg'onish tarixiga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

oid ilmiy ishlari Fitratning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini davrning umumiy tarixiy jarayonlari bilan bog'liq holda tushunishda muhim manba hisoblanadi. Dilorom Alimovaning Õrta Osiyoda jadidchilik harakati va milliy davlatchilik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham Fitrat yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari hamda islohotchilik g'oyalarining shakllanishi yoritilgan.[2]

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlarini õrganishda uning bevosita asarlari asosiy manba vazifasini bajaradi. "Munozara" asarida eski va yangi ta'lim usullari, maktab va madrasa faoliyati, jamiyatdagi ilmiy qoloqlik hamda diniy bilimlarning mazmunini anglash masalalari badiiy-publitsistik shaklda yoritilgan. "Hind sayyohi bayonoti" asarida esa Buxoroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy hayotidagi muammolar tashqi kuzatuvchi nigohi orqali tahlil qilinadi. "Rahbari najot" risolasida diniy va dunyoviy bilimlarning inson kamolotidagi ahamiyati, axloqiy tarbiya, tafsir, hadis, fiqh va boshqa ilm sohalari haqida fikr yuritiladi.[3]

Fitratning "Oila" asari uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini õrganishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur asarda oilaning jamiyat hayotidagi õrni, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi, ota-onaning mas'uliyati va oilaviy axloq masalalari keng yoritilgan. Muallif oila mustahkamligini millat kelajagi bilan bog'lab, jamiyat taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi sifatida oilaga alohida e'tibor qaratadi.[4]

Fitrat ijodini tadqiq etishda zamonaviy ilmiy adabiyotlar, jadidchilik tarixiga oid monografiyalar, davriy matbuot materiallari va tarixiy manbalardan ham foydalanish muhimdir. Begali Qosimov, Dilorom Alimova, Hamidulla Boltaboyev, Naim Karimov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari jadid adabiyoti, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy tafakkur tarixini chuqurroq anglashga yordam beradi. Mazkur maqolada tarixiylik, xolislik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Fitratning asarlaridagi asosiy g'oyalar davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilinib, ularning diniy-ma'rifiy yangilanish va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ochib berildi.

Muhokama va natijalar: Abdurauf Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari, avvalo, u yashagan davrning murakkab tarixiy sharoiti bilan bevosita bog'liq edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy hayotning turli sohalarida islohotlarga ehtiyoj kuchaygan edi. Maktab va madrasalarda ta'lim berishning an'anaviy usullari saqlanib qolgan, dunyoviy fanlar va zamonaviy bilimlarni õqitish imkoniyatlari cheklangan edi. Shu bilan birga, jamiyatda diniy bilimlarning mazmunini chuqur anglash, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va yoshlarni zamon talablariga mos tarbiyalash zarurati mavjud edi. Fitrat ana shu muammolarni anglagan holda, jamiyat taraqqiyotini ta'lim va ma'rifat bilan bog'liq holda tushuntirdi.

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlarida islom dinining ilmga bõlgan munosabati muhim õrin tutadi. U dinni taraqqiyotga tõsiq sifatida emas, balki insonni ezgulikka, axloqiy kamolotga va ilm olishga undovchi ma'naviy asos sifatida tushunishga intildi. Uning nazarida, musulmon jamiyatining qoloqligi dinning õzidan emas, balki diniy bilimlarni yuzaki anglash, jaholat, loqaydlik va zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan uzoqlashish kabi omillar bilan bog'liq edi. Shu sababli mutafakkir diniy bilimlarni chuqur õrganish bilan birga, tabiiy va ijtimoiy fanlarni ham egallash zarurligini ilgari surdi.

Fitratning "Rahbari najot" asari uning diniy va dunyoviy bilimlar munosabatiga oid qarashlarini yorituvchi muhim manbalardan biridir. Ushbu risolada insonning kamolotga erishishi uchun zarur bõlgan bilimlar, axloqiy fazilatlar va tarbiya masalalari muhokama qilinadi. Muallif tafsir, hadis, fiqh va kalom kabi diniy ilmlar bilan bir qatorda tilshunoslik, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarning ham ahamiyatini kõrsatadi. Bu yondashuv Fitratning ilmni bir tomonlama tushunmaganini, aksincha, inson kamoloti uchun turli bilim sohalarining õzaro uyg'unligini zarur deb hisoblaganini namoyon etadi.[5]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"Rahbari najot" asarining asosiy mazmunida insonning jismoniy, aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatdan kamol topishi masalalari muhim õrin egallaydi. Fitrat tarbiyani faqat bolaga ma'lum bilimlarni berish bilan cheklamaydi. Uning fikricha, tarbiya insonning fikrlash qobiliyatini, xulq-atvorini, iroda kuchini va jamiyatdagi mas'uliyatini shakllantirishi kerak. Shuning uchun ham u ilm olish, axloqni takomillashtirish va insoniy fazilatlarni rivojlantirishni bir-biridan ajralmas jarayon sifatida baholaydi. Bunday qarashlar Fitratning ma'rifatparvarlik konsepsiyasida inson omiliga alohida e'tibor qaratilganini kõrsatadi.

Mutafakkirning "Munozara" asari diniy-ma'rifiy yangilanish masalasini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Asarda Buxorodagi ta'lim tizimi, eski va yangi usul maktablari, mudarrislar faoliyati va jamiyatning ilmga munosabati munozara shaklida tasvirlangan. Fitrat bu asar orqali an'anaviy ta'lim tizimining ayrim kamchiliklarini tanqid qiladi va yangi usuldagi maktablarning afzalliklarini asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, bolalarga faqat yodlash asosida bilim berish yetarli emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, dunyoqarashi va amaliy bilimlarini rivojlantirish ham zarur edi.[6]

"Munozara" asarida ilgari surilgan muhim g'oyalardan biri ta'limning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatidir. Fitrat maktab va madrasalarni xalqning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muassasalar sifatida tasavvur etadi. Biroq bunday muassasalar zamon talablariga mos ravishda faoliyat yuritishi, õquvchilarga diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot va boshqa fanlardan ham saboq berishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu orqali u ta'lim tizimini yangilashni milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ilgari suradi.

Fitratning "Hind sayyohi bayonoti" asarida Buxoro jamiyatining ijtimoiy va ma'rifiy muammolari yanada kengroq yoritiladi. Asarda muallif jamiyatdagi qoloqlik, boshqaruvdagi kamchiliklar, ta'lim tizimidagi muammolar va xalqning ilm-ma'rifatga munosabatini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Hind sayyohi obrazi orqali Buxorodagi mavjud holat boshqa mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslanadi. Bunday usul muallifga jamiyatdagi muammolarni ochib berish, ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritish imkonini beradi.[7]

Fitratning mazkur asarida taraqqiyot masalasi faqat ta'lim bilan chegaralanmaydi. Unda iqtisodiy hayot, boshqaruv, savdo-sotiq, ijtimoiy munosabatlar va xalqning turmush tarzi ham muhim masalalar sifatida ko'rib chiqiladi. Mutafakkirning fikricha, jamiyatning rivojlanishi uchun barcha sohalarda yangilanish zarur. Ilmli va ma'rifatli insonlar yetishib chiqishi, iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, boshqaruvda adolat va tartibning ta'minlanishi hamda xalq manfaatlarining e'tiborga olinishi taraqqiyotning muhim omillaridir. Shu jihatdan Fitratning qarashlari keng qamrovli ijtimoiy islohotlar g'oyasini ifodalaydi.

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlarida islom tarixini õrganish va diniy bilimlarni ommaga tushunarli tarzda yetkazish masalasi ham muhim õrin egallaydi. Uning "Muxtasar islom tarixi" asarida islom dinining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi. Ushbu asar orqali muallif õquvchilarning diniy-tarixiy bilimlarini kengaytirish, islom tarixidagi muhim voqealar va shaxslar haqida tushuncha hosil qilishni kõzlagan. Bu esa Fitratning diniy-ma'rifiy faoliyati faqat tanqid va islohot g'oyalari bilan cheklanmaganini, balki amaliy ravishda ma'rifiy adabiyotlar yaratishga ham qaratilganini kõrsatadi.[8]

Fitratning "Mavludi sharif yoki Mur'oti xayr ul-bashar" asari ham diniy-ma'rifiy merosining muhim tarkibiy qismidir. Mazkur asarda Payg'ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va siyratiga oid mavzular yoritiladi. Bu asar orqali muallif musulmonlarning diniy bilimlarini kengaytirish, islom tarixidagi muhim shaxs va voqealarni tushuntirishga intilgan. Uning diniy mazmundagi asarlarida axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar, ezgulik va ma'naviy poklik masalalariga e'tibor qaratilishi Fitratning ma'rifatparvarlik qarashlari bilan uzviy bog'liqdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Fitrat qarashlarida oila va jamiyat munosabatlari ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Uning "Oila" asarida oila jamiyatning asosiy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Muallif millatning kelajagi oiladagi tarbiya, ota-onaning mas'uliyati, farzandlarning bilim olishi va axloqiy kamolotiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Fitrat oilani faqat shaxsiy hayot doirasi sifatida emas, balki millatning ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim institut sifatida baholaydi.[9]

"Oila" asarida farzand tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Fitrat ota-onaning asosiy vazifalaridan biri farzandni sog'lom, bilimli, odobli va jamiyatga foydali inson qilib voyaga yetkazish ekanini ilgari suradi. Uning fikricha, bolaning kelajakdagi dunyoqarashi va xulq-atvori oilada shakllanadi. Shu sababli ota-onalar farzand tarbiyasiga befarq bõlmasligi, ularga ilm olish uchun zarur sharoit yaratishi va õzlari ham yaxshi namuna kõrsatishi lozim. Bu qarashlar Fitratning tarbiya masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda tushunganini anglatadi.

Fitratning diniy-ma'rifiy yangilanish haqidagi qarashlari jadidchilik harakatining umumiy maqsadlari bilan hamohang edi. Jadidlar jamiyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, insonlarning bilim darajasini oshirish, ta'lim tizimini isloh qilish va milliy ongni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaganlar. Fitrat ham bu jarayonda faol ishtirok etib, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yaratish va ma'rifiy adabiyotlarni keng tarqatishga intildi. U 1912–1916-yillarda Buxoro va Qarshida jadid maktablari faoliyatini yo'lga qõyish hamda ta'lim berish ishlarida qatnashgan.[10]

Fitratning ta'lim sohasidagi qarashlari uning "Õquv" asarida ham namoyon bõladi. Ushbu qõllanmada yosh avlodga turli fanlar, tabiat, dunyo, tarix va inson hayotiga oid boshlang'ich bilimlarni yetkazish maqsadi kõzlangan. Bu holat Fitratning ta'limni faqat diniy bilimlar doirasida tasavvur qilmaganini, balki bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan, ularni hayotga tayyorlaydigan bilimlar tizimini shakllantirishga intilganini kõrsatadi. Uning nazarida, zamonaviy ta'lim yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, õz xalqining tarixini biladigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qõsha oladigan insonlar sifatida tarbiyalashi kerak edi.

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlarida jaholat va ilmsizlikka qarshi kurash muhim õrin tutadi. U jamiyatdagi qoloqlikning sabablarini faqat tashqi siyosiy omillardan izlamasdan, ichki ijtimoiy muammolar, bilimga e'tiborsizlik, õzgarishlarga qarshilik va eskirgan qarashlarning saqlanib qolishi bilan ham bog'laydi. Mutafakkir xalqning taraqqiyotga erishishi uchun, avvalo, ilm olishga intilishi, yangiliklarni õrganishi va mavjud muammolarga tanqidiy yondashishi zarurligini ilgari suradi. Bu qarashlar uning ma'rifatparvarlik faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Fitratning jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlarida milliy ong va milliy birlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega. U xalqning taraqqiyoti uchun ichki nizolar, guruhbozlik va õzaro kelishmovchiliklarni kamaytirish, umumiy maqsadlar atrofida birlashish zarurligini ta'kidlagan. "Munozara" asarining muqaddimasida ham jadid va qadim tarafdorlari õrtasidagi kelishmovchiliklar jamiyatning kuchsizlanishiga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Fitratning nazarida, musulmon jamiyati õzining ma'naviy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishi uchun ichki birdamlikni mustahkamlashi lozim edi.[11]

Fitratning ma'rifatparvarlik qarashlari uning publitsistik faoliyatida ham yaqqol namoyon bõldi. U "Hurriyat" gazetasi va boshqa davriy nashrlarda jamiyat hayoti, millat taqdiri, ta'lim, siyosiy erkinlik va ma'naviy yangilanish masalalariga bag'ishlangan maqolalar bilan ishtirok etdi. Uning publitsistik chiqishlarida xalqni uyg'onishga, ilm olishga, ijtimoiy hayotdagi muammolarga befarq bõlmaslikka chaqirish asosiy mazmunni tashkil etdi. Bu faoliyat jadidchilik harakatining g'oyalarini keng ommaga yetkazishda muhim vosita bõlib xizmat qildi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlarini baholashda u yashagan davrning tarixiy sharoitini hisobga olish zarur. XX asr boshlarida Õrta Osiyoda an'anaviy diniy ta'lim muassasalari bilan yangi usul maktablari õrtasida munosabatlar murakkab kechgan. Bir tomondan, jadidlar zamonaviy fanlarni õqitish va ta'lim mazmunini yangilash zarurligini ilgari surgan bõlsalar, ikkinchi tomondan, jamiyatning ayrim qatlamlari an'anaviy ta'lim shakllarini saqlab qolish tarafdori edi. Fitrat ana shu munozaralarda yangilanish tarafdori sifatida qatnashdi. Biroq uning qarashlarini an'anaviy diniy merosni butunlay inkor etish sifatida talqin qilish tõg'ri emas. Aksincha, u diniy bilimlarni chuqur anglash, ularni zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim tizimini takomillashtirishga intildi.

Fitratning jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlarida iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy faollik masalalari ham muhim õrin egallaydi. Uning fikricha, ilm-ma'rifatning rivojlanishi xalqning iqtisodiy hayotiga ham ijobiy ta'sir kõrsatadi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, qishloq xõjaligi va boshqa sohalarda zamonaviy bilimlardan foydalanish jamiyatning moddiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli Fitrat xalqni faqat diniy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy va dunyoviy fanlarni ham egallashga chaqirgan. Bu yondashuv uning ma'rifatparvarlik qarashlarida ilmning amaliy ahamiyatiga katta e'tibor qaratilganini kõrsatadi.

Fitratning diniy-ma'rifiy yangilanish haqidagi qarashlari yosh avlod tarbiyasi masalasi bilan ham uzviy bog'liqdir. U yoshlarni milliy tarix, diniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash zarurligini ilgari surgan. Uning nazarida, yosh avlodning ma'naviy yetukligi jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida bilim berish bilan birga, insoniy fazilatlarni shakllantirish, Vatanga muhabbat, mas'uliyat, halollik va mehnatsevarlikni tarbiyalash ham muhim hisoblangan.

Fitratning ijodiy merosi faqat diniy va ijtimoiy masalalar bilan cheklanmaydi. U tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, musiqa va san'at sohalarida ham muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. "Ona tili", "Sarf", "Nahv", "Adabiyot qoidalari" kabi asarlari uning milliy ta'lim va ilmiy tafakkur taraqqiyotiga qõshgan hissasini kõrsatadi. Ushbu asarlar orqali u õzbek tilining ilmiy asoslarini rivojlantirish, ta'lim jarayonida ona tilining mavqeyini mustahkamlash va milliy madaniyatni õrganishga intildi.[12]

Fitratning milliy madaniyat va ma'naviyatga oid qarashlari ham uning jamiyat taraqqiyoti haqidagi umumiy konsepsiyasining muhim qismi hisoblanadi. U xalqning tarixiy xotirasi, adabiy merosi, tili va san'atini milliy o'zlikni anglashning asosiy omillari sifatida baholagan. Uning qadimgi turkiy adabiyot, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy va boshqa mutafakkirlar merosiga murojaat qilishi milliy madaniyat tarixini ilmiy jihatdan o'rganishga bõlgan intilishini namoyon etadi. Demak, Fitrat uchun diniy-ma'rifiy yangilanish milliy madaniyat va tarixiy merosni chuqur anglash bilan ham chambarchas bog'liq edi.

Fitratning ijtimoiy-siyosiy qarashlari 1917-yildan keyingi tarixiy jarayonlarda yanada faol namoyon bõldi. U Yosh buxoroliklar harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida Buxoro jamiyatini isloh qilish, davlat boshqaruvini yangilash va xalqning siyosiy huquqlarini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratdi. 1920-yildan keyingi davrda ham u ilmiy, ma'rifiy va davlat faoliyatida qatnashdi. Uning bu faoliyati diniy-ma'rifiy yangilanish g'oyalarining kengroq ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan bog'liq holda rivojlanganini kõrsatadi.[13]

Shu bilan birga, Fitratning hayoti va faoliyati murakkab tarixiy sinovlarga duch keldi. 1930-yillarda sovet siyosiy qatag'onlari natijasida u ham ta'qibga uchradi va 1938-yilda qatl etildi. Uning ilmiy va adabiy merosi uzoq vaqt davomida cheklangan sharoitda õrganildi. Keyinchalik Fitrat merosini qayta tiklash va ilmiy jihatdan tadqiq etish jarayoni boshlandi. Bugungi kunda uning asarlari milliy tarix, jadidchilik,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

adabiyot, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy tafakkur tarixini õrganishda muhim manbalar sifatida baholanadi.[14]

Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari zamonaviy jamiyat uchun ham tarixiy saboq vazifasini bajaradi. Uning ilmga intilish, ta'lim sifatini oshirish, diniy bilimlarni chuqur anglash, axloqiy tarbiya va oilaning mustahkamligini ta'minlash haqidagi fikrlari bugungi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar bilan hamohangdir. Bunda Fitrat qarashlarini õz davrining tarixiy sharoitidan ajratmagan holda õrganish muhimdir. Chunki uning g'oyalari XX asr boshidagi Buxoro va Turkiston jamiyatining ehtiyojlari, siyosiy vaziyati va ma'rifiy muammolari asosida shakllangan.

Umuman olganda, Abdurauf Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari uchta asosiy yõnalishda namoyon bõladi: diniy bilimlarni chuqur va ongli õrganish, zamonaviy dunyoviy fanlarni egallash hamda axloqiy-ma'naviy tarbiyani takomillashtirish. Bu yõnalishlar bir-biridan ajralmagan holda, yagona taraqqiyot konsepsiyasini tashkil etadi. Fitratning nazarida, ilmli, axloqli va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar jamiyatni rivojlantirishga qodir bõladi. Shu bois uning asarlari Õrta Osiyoda jadidchilik harakatining ma'rifiy mazmunini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning diniy-ma'rifiy qarashlari XX asr boshlarida Õrta Osiyoda yuzaga kelgan milliy uyg'onish va jadidchilik harakatining muhim g'oyaviy asoslaridan biri hisoblanadi. Mutafakkir õz asarlarida jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, axloqiy kamolot va ijtimoiy yangilanish bilan uzviy bog'liq holda talqin qilgan. Uning qarashlarida islom dini insonni ezgulikka, ilm olishga va ma'naviy kamolotga undovchi qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bõladi. Shu bilan birga, Fitrat diniy bilimlarni zamonaviy dunyoviy fanlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilgari surgan.

"Rahbari najot" asarida diniy va dunyoviy bilimlarning inson kamolotidagi ahamiyati, "Munozara"da ta'lim tizimini isloh qilish va yangi usul maktablarini rivojlantirish zarurati, "Hind sayyohi bayonoti"da jamiyatning ijtimoiy-ma'rifiy muammolari, "Oila" asarida esa farzand tarbiyasi va oilaning jamiyat hayotidagi õrni keng yoritilgan. Bu asarlar Fitratning ma'rifatparvarlik qarashlari tizimli xarakterga ega bõlganini va uning jamiyat taraqqiyotini bir nechta õzaro bog'liq omillar asosida tushuntirganini kõrsatadi.

Fitratning fikricha, xalqning taraqqiyoti uchun, avvalo, ilm olishga intilish, ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, yosh avlodni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash hamda jamiyatdagi mavjud muammolarga tanqidiy yondashish zarur. U jaholat, loqaydlik va ilmsizlikni taraqqiyotga tõsqinlik qiluvchi omillar sifatida baholagan. Shu sababli uning ma'rifatparvarlik faoliyati xalqni uyg'otish, milliy ongni rivojlantirish va ijtimoiy hayotda yangilanishlarni amalga oshirishga qaratilgan edi.

Abdurauf Fitratning tarixiy xizmatlaridan biri shundaki, u diniy-ma'rifiy masalalarni jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qildi. Uning qarashlari Õzbekiston tarixida milliy uyg'onish, ta'lim islohoti va zamonaviy ma'naviy tafakkur shakllanishini õrganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda Fitratning ilm-ma'rifat, tarbiya, oila, milliy madaniyat va jamiyat taraqqiyotiga oid merosini chuqur õrganish, yosh avlodga yetkazish hamda tarixiy tajriba sifatida baholash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Munozara. – Samarqand: Matbaai Demurova, 1913.
2. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti. – Istanbul: Ahmad Komil matbaasi, 1912.
3. Fitrat A. Rahbari najot. – Petrograd: M.A. Maksutova bosmaxonasi, 1915.
4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Fitrat A. Muxtasar islom tarixi. – Samarqand: Matbaai G'ozoruf, 1915.
6. Fitrat A. Mavludi sharif yoki Mur'oti xayr ul-bashar. – Toshkent: Osiyo, 1914.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
8. Fitrat A. Õquv. – Boku, 1917.
9. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
10. Alimova D.A. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999.
11. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Õzbekiston, 2008.
12. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Fan, 2007.
13. Õzbek adabiyoti tarixi. XX asr boshlaridagi adabiy jarayon. – Toshkent: Fan, 1990.
14. Õzbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Şarq, 2000.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.